



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 15-mart

VI-88-32-7-104-K/24

Toyloq tumani

Yer va unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritishda tumandagi mavjud davlat zaxira yerlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli, 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-sonli hamda 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-15-sonli Farmonlariga ko‘ra, yer umummilliy boylik, xalqning hayoti, faoliyati va farovonligi asosi, eng muhim tabiiy resurs hisoblanishi, shu sababli, yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer bilan uzviy bog‘langan Davlat kadastrlari yagona tizimini to‘laqonli yuritish davlatning eng muhim vazifalari hisoblanishi belgilab qo‘yilgan. Shu sababli, Davlat kadastrlar palatasi Toyloq tumani filiali boshlig‘i B.Mustofoqulovning 2024-yil 22-fevraldagisi yer va unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritishda tumandagi mavjud davlat zaxira yerlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi 202-sonli taklifi muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson sakkizinchisi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlar palatasi Toyloq tumani filiali boshlig‘i B.Mustofoqulovning 2024-yil 22-fevraldagisi yer va unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritishda tumandagi mavjud davlat zaxira yerlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi 202-sonli taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tumandagi yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash, yerlarni muhofaza qilish, unga bog‘liq resurslarning aniq hisobini yuritishda tumandagi mavjud davlat zaxira yerlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish takliflari ilovaga muvofiq ma’qillansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rnbosari (Sh.Xaydarov), tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekalogiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rnbosari (S.Eraliyev), Davlat Kadastrlar palatasi tuman bo‘limi (B.Mustafaqulov)lar, kelishilgan holda tumandagi taklif etilayotgan mavjud davlat zaxira yerlarini belgilangan qonunchilik talablariga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (O‘.Usmonov), tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rnbosari (Sh.Xaydarov) hamda qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekalogiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rnbosari (S.Eraliyev) zimmalariga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



BABONAZAROV
BAXODIR
KADIROVICH

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 15-martdagi
VI-88-32-7-104-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tumandagi yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash, yerkarni muhofaza qilish, unga bog'liq resurslarning aniq hisobini yuritishda tumandagi mavjud davlat zaxira yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish manzilli ro'yxati

T/R	№	Manzil	INN, JSHSHIR	Yer maydoni (ga)
1	1-polygon	Toyloq tumani	200961334	482,5
2	2-polygon	Toyloq tumani	200961334	347,8
3	3-polygon	Toyloq tumani	200961334	345,3
4	4-polygon	Toyloq tumani	200961334	2,2
5	5-polygon	Toyloq tumani	200961334	1,0
6	6-polygon	Toyloq tumani	200961334	36,8
7	7-polygon	Toyloq tumani	200961334	5,4
8	8-polygon	Toyloq tumani	200961334	6,6
9	9-polygon	Toyloq tumani	200961334	1,7
10	10-polygon	Toyloq tumani	200961334	1,5
11	11-polygon	Toyloq tumani	200961334	2,9
12	12-polygon	Toyloq tumani	200961334	0,4
13	13-polygon	Toyloq tumani	200961334	12,9
14	14-polygon	Toyloq tumani	200961334	0,2
Jami:				1247,1